

# O‘ZBEKISTONDA MUZEYLARNING IJTIMOY-MADANIY RIVOJIDA TA’LIMY FAOLIYATNING TAKOMILLASHUVI (XX ASR)



**Raxmatullaeva Nigoraxon Nizomiddinovna**

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541723>

***Annotatsiya.** O‘zbekiston muzeylari tajribasida ta’limiy faoliyatida ishlab chiqilayotgan loyihalarning ijtimoiy va madaniy moslashuvi jarayonlarini tahlil etish ushbu maqola qamrovida o‘rganilgan. XX asrda mahalliy tarixiy va badiiy muzeylar tizimida muzey lektoriylari va tajriba to‘garaklari faoliyatida pedagogik metodik ishlanmalar yaratildi hamda butunittifoq ilmiy seminarlari tashkil etildi. Muzeylarning zamonaviy jamiyatdagi rolini o‘rganishning dolzarbligini belgilovchi omillardan biri shundaki, XX-XXI asrlar boshidagi ijtimoiy vaziyatning tub o‘zgarishlariga qaramay, muzey o‘z faoliyatini ma’rifiy targ‘ibot vazifasini davom ettirmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** o‘lkashunoslik muzeylari, muzey lektoriylari, muzey to‘garaklari, ekskursiya dasturlari, muzey pedagogikasi, ma’rifiy faoliyat, madaniy-oqartuv bo‘limi.*

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, muzeyga keng jamoatchilikning qiziqishi va uning institutsional shakllanishi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlanadi. Xuddi shu paytdan muzey ishining kelgusi taraqqiyoti ishlab chiqarish, sanoatning yuksalishi va maorif sohasini isloh qilish bilan bog‘liqdir. Muzey va ta’limning o‘zaro aloqalari ilm va fanning turli sohalarini hamkorligining samarasidir. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, muzeyning umumta’lim jarayoniga kiritilishi, insonni ruhiy va axloqiy jihatdan juda tez o‘zgarib borayotgan olamda faqat yashashga tayyorlabgina qolmasdan, uning sodir bo‘layotgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston muzeylarining ma’rifiy-ta’limiy xususiyatlari L.M.Landa va Yu.I.Glassning hamda X.Sodiqova, Yu.Glass, Ye.Soylar tayyorlagan yo‘l ko‘rsatkichlari (putevoditel va spravochniklar) ham o‘z hajmi va maqsadiga muvofiq muzeylarga kelayotganlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularda O‘zbekiston muzeylari ekspozitsiyalarini g‘oyaviy tashviqot ishlari qisman tahlil etilgan<sup>1</sup>. Sovetlar hukmronligi davrida asosiy metodik qo‘llanmalar yaratishda ilmiy faoliyat ko‘rsatgan O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi yo‘l ko‘rsatkichi ham ommabop mazmundagi asarlar doirasiga kiradi<sup>2</sup>.

Respublikadagi muzeylarning madaniy-ma’rifiy jarayonlariga oid holatlarning batafsil yoritilishi tadqiqotlar orasida N.Sodiqovanning asarlari alohida ajralib turadi<sup>3</sup>. Ulardagi davr

<sup>1</sup> Гласс Ю.И., Ланда Л.М. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Ташкент: Госизд., 1961. – 182 с.; Садыков Х., Гласс Ю., Цой Е. Музеи Узбекистана. Путеводитель-справочник. – Ташкент: Фан, 1978. – 118 с.

<sup>2</sup> Материалы к путеводителю по Музею истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека АН. – Ташкент: Фан, 1990. – 164 с.

<sup>3</sup> Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека / Наука в Узбекистане. Т. II. Общественные науки. – Ташкент: Фан, 1974.; Садыкова Н.. Музейное дело в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975. – 290 с.; Шу муаллиф.

talabiga ko‘ra kiritilgan mafkuraviy jihatlarni hisobga olmaganda, O‘zbekistonda muzeylarning ta‘limiy funksiyalari muammolari atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbekiston muzeylarining rosmana rekonstruksiya 1929-1930 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtga kelib muzeylar tarmog‘ida katta o‘zgarishlar yuz beradi va bir nechta yirik muzeylar qayta tashkil etiladi. Umumiy ta‘lim, o‘rta maxsus maktablar va oliy o‘quv yurtlarida ham muzeylarni ko‘rish o‘quv programmalariga kiritiladi. O‘lkashunoslik muzeylari bu borada katta tajribaga ega bo‘lib, ularning ekspozitsiyasida namoyishga quyilgan tabiat va tabiiy ilmiy jarayonlarga bag‘ishlangan eksponatlar tahlil jarayoni integrasiyasida ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1933 yilda bo‘lib o‘tgan Butunittifoq muzeylar s‘ezdida Xalq Maorifi Komissariati rahbari A.S.Bubnov o‘z dokladida quyidagilarni ta‘kidlab o‘tadi – “Bizga birinchi navbatda texnik, tabiiy – ilmiy, pedagogik, iqtisodiy va o‘lkashunoslik muzeylari bugungi kunda juda zarur. Bu muzeylar, ommaviy oqartuv ishlarini rivojlantirish uchun o‘z metodik qo‘llanmalarini ishlab chiqish sirtqi va kunduzgi ta‘lim o‘quv maqsadlarida keng qo‘llanilishi zarur”<sup>4</sup>. Bu davrda boshlang‘ich va o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari soni butunittifoq darajasida 25,6 mln. tashkil etib, ular muzeylarning aktiv tomoshabinlari sanalar edi.

Ta‘limiy xarakterdagi ekskursiyalar faqatgina 3 yoki 5 ta muzey ashyosini qamrab olgan bo‘lib (jamiyatshunoslik, geografiya, tarix, fizika, kimyo fanlari doirasida) tashkil etilib, muzeydagi o‘quv kunlarida faqatgina bitta mavzu asosida muzey lektoriylari faoliyati tashkil etildi. Shahardan tashqaridan uzoqroq masofadan tashrif buyurgan o‘quvchilar esa uzoq yo‘l masofasini bosib o‘tish bilan birga, birgina mavzu bilan cheklanishlari ko‘p vaqt yo‘qotishlariga sabab bo‘lar edi. Bu borada barcha muzeylarga namuna sifatida tarixiy ahamiyatga ega adabiy yo‘nalishdagi muzeylardan L.N.Tolstoy muzeyi bo‘yicha ekskursiya metodlari bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazildi. 1932-33 akademik o‘quv yili doirasida 261 ta ekskursiya olib borilgan bo‘lib, ularning barchasi maktab ekskursiyalari sanalar edi<sup>5</sup>. Muzeylar targ‘ibotida birinchi navbatda ekskursiya ishlarida siyosiy-targ‘ibot jarayonlari muhim hisoblangan.

1947 yilda tarix va badiiy ixtisoslikdagi muzeylar bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi SSR Fanlar Akademiyasining Tabiat muzeyi ham tomoshabinlar tashrifi statistikasi borasida muhim ahamiyat kasb etar edi. 1944 yildan boshlab har yili uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar muzey zallarini yangi eksponatlar bilan to‘ldirdi. 1946 yildan boshlab muzey xodimlari Toshkent atrofidagi rayonlarni tekshirib, tabiat o‘qituvchilariga yordam tariqasida qo‘llanma tayyorladilar<sup>6</sup>. Muzeyning o‘rta va boshlang‘ich maktablar uchun ahamiyati katta bo‘lib, tabiat, botanika, geologiya, zoologiya, geografiya, darvinizm, astronomiya kabi fanlarni o‘qitishda muzey eksponatlaridan keng foydalanish mavzularni o‘zlashtirishda, tushunchalar hosil bo‘lishini ta‘minladi.

Muzeyning ilmiy xodimlari – biologiya fanlari kandidatlar M. Ro‘ziboqiev, N. Nazarmuhammedov, kichik ilmiy xodimlaridan K. Ashurov, Sh.Xo‘jaev va boshqalar o‘zbek tilida ommabop ilmiy mavzularda leksiyalar o‘tkazdilar. Masalan, “Erda hayotning paydo bo‘lishi”, “Odamning kelib chiqishi”, “Paxtachilik zarakurandalari”, “Tabiatni o‘zgartirgan rus olimlari” va

Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 270 б.; Шу муаллиф. Единство научно-исследовательской и идейно-воспитательной работы музеев Узбекистана. Ташкент: Фан, 1987.; Шу муаллиф. Историография и источники по музейному строительству. Ташкент: Фан, 1987.; Шу муаллиф. Мулки торож ўзбегим. Тошкент: Фан-хазина, 1995. – 42 б.; Шу муаллиф. Ўрта Осиёда музейларнинг шаклланиши // Мозийдан садо. Тошкент, 1999. – № 1–2. – Б. 16–23.

<sup>4</sup> Поздняков Н.Н. Работа со школой – на в ысшую ступень. Советский музей. 1934. №1. С.47. (46-51)

<sup>5</sup> Чиркова Н. О работе Толстовского музея со школами. Советский музей. 1934. С.47. (46-51).

<sup>6</sup> Х.Хайритдинов. Табиат музейида. Қизил Ўзбекистон. 1947 йил 6 август.

boshqa mavzularda leksiyalar o‘qilib, tomoshabinlar auditoriyasi kengaytirildi<sup>7</sup>. 1949 yilga kelib Tabiat muzeyi respublikaning 25 yilligiga bag‘ishlab yangi pavilonlarni yarata boshladi. Muzeyning “Hayvonotning paydo bo‘lishi”, “Hayvonot dunyosi” va “O‘simliklar dunyosi” ekspozitsiyasida I.V.Michurin, T.D.Lisenko ta’limotlariga asoslanib tuzilgan material va maketlar bilan to‘ldirildi<sup>8</sup>. 1948 yildan esa ushbu muzeyning leksiya zalida aholi uchun michurinchilik va akademik Lisenko ta’limotiga doir ma’ruzalar ham tashkil etilgan edi. Buning natijasida, muzeylarning tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha ta’limiy funksiyalari takomillashib, muzey pavilonlari ham mavsumiy asosda yangilanib bordi.

1946 – 1953 yillarda O‘zbekiston muzeylarida modiy-texnik bazasining yetishmasligi tufayli asosan ko‘rgazma tipidagi ekspozitsiyalar tashkil etila boshlandi. Shuningdek, 1955 yillarga kelib esa rayon madaniyat uylarida ham ko‘chma ko‘rgazmalar ochildi. “Ushbu ko‘rgazmalarda tasviriy san’at, haykaltaroshlikga oid 100 ga yaqin ijodiy ishlar tanlab olindi. UzSSR davlat san’at muzeyi fondiga taalluqli, sayyor rus rassomlari – I.E. Repin, I.Levitan, I. Shishkinning ijodiga oid noyob asarlar, shuningdek zamonaviy sovet rassomlarining rangtasvir ishlari asosida ko‘chma ekspozitsiyalar yaratdi”<sup>9</sup>. Bu turdagi ko‘rgazmalar, tomoshabinlar uchun ilmiy, madaniy va estetik ma’rifiy jarayonlar faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilib, tasviriy san’atni ham ommaviylashtirishga olib keldi.

O‘zSSR Madaniyat vazirligi o‘rinbosari A. Zavayalovning 1953 yil 19 oktyabrda №284 – sonli xatidagi Respublika muzeylarining faoliyatiga doir bayonnomasida bir qancha muammolar ko‘rsatib o‘tiladi<sup>10</sup>. Bayonnomada ko‘rsatilishicha, muzeylar faoliyati qoniqarsiz baholanib mavjud muzey ekspozitsiyalari ashyoviy, xujjatli, badiiy-tasviriy materiallar bilan to‘liq yoritilmagan edi. Ekspozitsiya illyustrativ ashyolar bilan qoniqarsiz darajada bezatilgan. Respublikaning tabiat boyligi sanoatdagi ishlab chiqarish jarayonlari kam ko‘rsatilgan. Toshkent viloyati, Andijon, Qoraqalpoq, Xorazm va Qashqadaryo muzeylarida tabiat bo‘limi ekspozitsiyasi umuman mavjud emasligi aniqlangan. Bundan tashqari Buxoro va Qoraqalpoq muzeylarida Sovet davri bo‘limi ekspozitsiyasi tugallanmagan holatda edi. Qashqadaryo, Qo‘qon va Andijon muzeylarida esa ekspozitsiyaning mavzuviy rejasi tugallanmagani qayd etilgan. Muzeylarning fondlarini hisobga olish ishlari va ilmiy pasportlarini yozish ishlari ham qoniqarsiz ravishda ekanligi aniqlandi. Muzeylarga tomoshabinlarni jalb etish, turli xalq-xo‘jaligi va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlik ishlarini to‘g‘ri tashkil etilmaganligi siyosiy tashviqot ishlari ham qoniqarsiz darajada edi. Muzey hodimlari o‘zining sohasiga to‘g‘ri kelmasligi, shu sababli ularni malakasini oshirish bo‘yicha ishlarni ham amalga oshirib bo‘lmamasligini ham aytib o‘tgan. Mana shu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O‘zSSR madaniyat vazirligi o‘rinbosari tomonidan A.Zavayalov va Madaniyat ishlari boshqarmasi B. Protopov tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1954 yil 1 yanvariga qadar muzeylar xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazib, attestatsiyadan o‘tmagan xodimlarni malakali xodimlarga o‘zgartirildi. Oliy ma’lumotli muzeyshunoslarni aniqlab (boshqa joylarda, tashkilotlarda ishlayotgan bo‘lsa), muzeylarda ishlashga jalb etila boshlandi. Markaziy muzeylarda ish faoliyatiga nisbatan shtat va stavkalar mos kelmaganligini hisobga olib, 1954 yilning 1 noyabriga qadar muzey oyliklari va shtatlari ko‘rib chiqila boshlandi. Natijada, muzey ishchilarining ish sharoitlari yaxshilandi, ularning ish xaqi va lavozimlari muvofiqlashtirildi. Bu holat, muzeylar samaradorligini oshirishga yordam berdi.

<sup>7</sup> X.Хайритдинов. Табиат музейида. Қизил Ўзбекистон. 1947 йил 6 август.

<sup>8</sup> УзТАГ. Табиат музейида. Қизил Ўзбекистон. 1949 йил 11 сентябр.

<sup>9</sup> УзТАГ. Кўчма бадий виставкалар. Қизил Ўзбекистон. 1956 йил 3 январь.

<sup>10</sup> Ўзбекистон Миллий архиви. Фонд Р- 2487. Опись – 1. Йиғма жилд – 3. Варрак – 241. Приказы по Министерству культуры УзССР за 1953 г. 136-139 бетлар.

Yiliga kamida 1 martadan Toshkent shahrida muzey ilmiy xodimlari tomonidan muzeyning turli yoʻnalishlari ilmiy seminarlar oʻtkazilib, muzey xodimlarini SSR Markaziy muzeylariga malaka oshirishga va xizmat safariga yuborila boshlandi. Oʻzbekiston halqlari tarixi davlat muzeyi ilmiy kengashi tomonidan muzeylarni ularning fond ashyolari boʻyicha ilmiy ishlarni, ommaviy-madaniy, jamoaviy-siyosiy, ekspozitsiya va ilmiy-tadqiqot ishlari boʻyicha kerakli yoʻriqnomalar bilan taʼminlab berila boshlandi<sup>11</sup>. Oʻzbekiston muzeylari fondlarida muzey ahamiyatiga ega boʻlmagan, moddiy ahamiyatga ega boʻlmagan narsalarni sotish maqsadida sovet davri boʻlimlari boʻyicha muzey ahamiyatiga ega eksponatlarni sotib olish uchun tushgan mablagʻlardan foydalanish imkoniyatlari ham shakllana boshladi.

1963 yil Samarqand shahrida Oʻrta Osiyo va Kozogʻiston respublikalari muzey xodimlarining ilmiy seminari boʻlib oʻtdi<sup>12</sup>. Unda Moskva shahridan Muzeyshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi S.Safronov, Oʻzbekiston - Oʻzbekiston xalqlari tarixi muzeyi katta ilmiy xodimi A. Reves, Oʻzbekiston xalqlari tarixi muzeyi ilmiy xodimi B. Jabbarov, Namangan oʻlkashunoslik muzeyi direktori N.Axmedov. Xorazm tarixiy revolyusiya tarixi muzeyi direktor oʻrinbosari T.Sereda Pahlavon Mahmud yodgorligida muzey boʻlimi sifatida 1963 yilgacha yagona Oʻzbekistonda yagona boʻlgan “Ateistlar uyi” ning ochilish va uning faoliyati yuzasidan maʼruza qildi. Buxoro oʻlkashunoslik muzeyi ommaviy-oqartuv boʻlimi mudiri B. Kasimzade, Kozogʻiston markaziy oʻlkashunoslik muzeyi xodimi R. Kosmambetova, Tojikiston Respublikasi birlashgan tarixiy-oʻlkashunoslik va badiiy muzey ilmiy xodimi K. Xodjandiev “Mehnatkashlarni estetik tarbiyalashda muzeylarning oʻrni maʼruzasi bilan”, Kozogʻiston Djambul muzeyi ilmiy xodimi A. Popov oʻz maʼruzalari bilan ishtirok etdilar.

Oʻzbekiston xalqlari tarixi muzeyi katta ilmiy xodimi A. Reves oʻz maʼruzasida maktab oʻquvchilari bilan hamkorlikda tashkil etilgan ekskursiya dasturlari boʻyicha maʼlumotlar keltirib oʻtgan. Unda muzeyning 8 kishidan iborat lektorlik guruhi 1963 yilda 143 ta maʼruza 10929 ta tashrifchiga olib borganligini keltirib oʻtadi<sup>13</sup>.

Muzey xodimlari tomonidan ikkita maktab internat bilan hamkorlikda yosh oʻlkashunoslar toʻgaragini tashkil etgan edi. Toʻgarakda oʻsha davr siyosati targʻibotiga doir Oʻrta Osiyo xalqlarining ozodlik uchun kurashi, vatanparvarlik jihatlari talqin etildi. Shuningdek, muzeyda talaba va oʻquvchilar uchun turli maʼruza va viktorinalar oʻtkazilishi ham taʼkidlab oʻtildi. Unda Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi muxbir aʼzosi, fizika matematika fanlari doktori, Toshkent observatoriyasi direktori V.P.Щегlov, tarix fanlari doktori V.A.Shishkin, tarix fanlari nomzodi O.D.Chexovich oʻz maʼruzalari bilan ishtirok etganlar. Turli ekskursiya va uchrashuvlardan tashqari ishlab chiqarish sohasidagi mehnatkashlar uchun ham Ochiq eshiklar kuni tashkil etilib unda maxsus vaqtinchalik koʻrgazmalar ham tashkil etilib borilgan.

Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi tizimda Toshkent va Qoʻqon shaharlaridagi A.S.Pushkin nomidagi Adabiyot muzeyi, Hamza nomidagi Adabiyot muzeyi, Nukus shahridagi Qoraqalpogʻiston ASSR oʻlkashunoslik muzeyi (Nukus shahrida) kiritilgan edi. Ushbu muzeylarda tashrifchilar bilan ishlashda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Namangan, Xorazm va Buxoro oʻlkashunoslik muzeylarida doimiy lektorlar faoliyat olib bordi. Yakshanba oʻqishlari

<sup>11</sup> Ўзбекистон Миллий архиви. Фонд Р- 2487. Опись – 1. Ўйғма жилд – 3. Варрақ – 241. Приказы по Министерству культуры УзССР за 1953 г. 136-139 бетлар.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Миллий архиви Р 2487. Опись 3. Ед.хр. 797. 2 варрақ. Управлния культуры просвет. Учреждения. Материалы республиканского совещания семинара музейных работников республик Средней Азии а Казахстана. Г. Самарканд. Сентябрь-октябрь 1963 года.

<sup>13</sup> Ўзбекистон Миллий архиви Р 2487. Опись 3. Ед.хр. 797. 49 варрақ. Управлния культуры просвет. Учреждения. Материалы республиканского совещания семинара музейных работников республик Средней Азии а Казахстана. Г. Самарканд. Сентябрь-октябрь 1963 года. 273 бет.

tashkil etildi. 1962-63 yillar oralig' idagi mavjud muzeylarda 500 dan ortiq leksiya tashkil etildi. Ulardan 200 tasi muzeyda o'tkazilgan bo'lsa, 300 dan ortig'i esa ko'chma leksiya edi. Ekskursiya mavzulari tematikasi quyidagilardan iborat edi: "Buxoro tarixi", "Buxoro yettiyillikda", "Chirchik tarixi", "Namanganning o'tmishi, buguni va kelajagi", "Samarqand shahri tarixi", "Farg'onaning tarixiy o'tmishi", "Farg'ona vodiysining geografik xarakteristikasi", "Chirchiq tabiati". Lekin shu bilan birga xar bir muzey ilmiy-ateistik propaganda mavzularida ekskursiya loyihalarini ishlab chiqdi. Ulardan, "Islom dinining reaksiya xususiyatlari", "Erda hayotning paydo bo'lishi", "Eski urf odatlar". Xorazm muzeyi tomonidan individual ekskursiya tashkil etish ham yo'lga qo'yildi.

1970 yillarga kelib, «Muzey va bolalar» mavzusida Butunittifoq konferensiyalari tashkil etila boshladi. Unda moskvalik, leningradlik, shuningdek qardosh respublikalardan kelgan san'atshunoslar, rassomlar, pedagoglar, ilmiy xodimlar ishtirok etishdi. Anjuman Davlat Tretyakov galereyasi va O'zbekiston SSR Davlat muzeyi tashabbusi bilan uyushtirildi.

Konferensiya qatnashchilari mahalliy aholini va eng avvalo yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalashning yangi vositalariga e'tiborni kuchaytirishni ta'kidlab, bu borada tavsiyalar berib borishdi. Madaniyat vazirligi qarorlari asosida san'at muzeylarining bolalar bilan ishlash nazariyasi, metodikasi va praktikasi davrning aktual masalalaridan biri hisoblandi. Bu borada Tretyakov Davlat galereyasi ilmiy sekretari V. M. Petushenko o'z ilmiy chiqishlarida quyidagi jarayonlarni ta'kidlab o'tgan edi: - "Menimcha, biz muzeyning ertagi kun tomoshabini haqida jiddiy o'ylashimiz lozim. Buning uchun bolalarni estetik jihatdan muntazam ravishda tarbiyalab borish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Yana bir masala. Muzeyde ekspozitsiyani to'g'ri tashkil etish tomoshabinga aniq tasavvur berishda katta ahamiyatga ega. Biz tomoshabinga to'g'ri yo'llanma beraylik, toki u milliy san'atning haqiqiy namunalari, qardosh xalqlar san'ati va jahon san'ati ravnaqi bilan tubdan tanisha olsun. Bu o'rinda mamlakatimizning yetakchi yirik muzeylari bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lib, fondlaridan o'zaro foydalanib, ko'rgazmalar tashkil etsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi, deb o'ylayman".

Bu davrda o'quvchilarga estetik tarbiya berishning ikkinchi omili esa umumta'lim maktablari hisoblanar edi. Shuning uchun ham umumta'lim maktablarida bolalarni 6 yoshdan o'qishga tayyorlash sinflari muntazam o'sib borishi ko'zda tutildi. 1985-yilga borib sobiq SSSR bo'yicha uzaytirilgan soatda o'qiydigan o'quvchilarning soni 13,5-14 millionga yetkazildi. Uzaytirilgan soatlarda o'quvchilar san'atning rang-barang, har xil, sinfdan tashqari tuzilgan programmalari bilan tanishib bordilar.

1970-yilda Yerevanning Markaziy ko'chalaridan birida jahonda birinchi bo'lib, Bolalar ijodi galereyasi ochildi. Bu noyob galereyaning asoschilari pedagog Janna Sergeevna Agamiryan va san'atshunos Genrix Surenovich Igityan hisoblandi. Bu galereya qanday tashkil topdi? 1968-yil respublika Rassomlar soyuzi ko'rgazma zalida Yerevandagi badiiy studiyalar a'zolari va 65 ta maktab o'quvchilarining ishlari qo'yilgan ko'rgazma ochildi. Uni ikki hafta ichida 12 ming kishi kelib ko'rdi. Ana shunda bolalar ijodini muntazam namoyish qilib turadigan estetik markaz masalasi paydo bo'ldi. Ancha qiyinchilik bilan ochilgan bu muzeyga Yerevandagi bolalarga o'z rasmlarini keltirish taklif qilindi. Bu sohada ko'p ishlar qilindi. Bunday muzeylar bola ijodining individual qirralarini ochishga katta yordam berdi. Muzeyning butunittifoq bo'limida qardosh xalqlarning yosh rassomlari ijodi namoyish etildi. Xalqaro bo'limda esa 65 ta mamlakat bolalarining ijodi qo'yilgan. Bizda yana bir diqqatga sazovor ish yo'lga qo'yilgan. Bu bolalar ijodi ko'rgazmalarini boshqa mamlakatlarda namoyish etish. O'z navbatida esa horijiy mamlakat bolalari asarlarini muzeyimizda namoyish etamiz. Bu borada Yaponiya, Fransiya, AQSh va boshqa ko'pgina mamlakatlar bilan tajriba almashildi. Muzeyda yosh san'atshunoslar to'garagi

tashkil etilgan. Bu yerda ibtidoiy san'at, Qadimgi dunyo san'ati (Misr; Gresiya, Rim) O'rta asrlar san'ati (Vizantiya va G'arbiy Yevropa), shuningdek, italyan, nemis, ispan, ingliz san'atiga oid rangtasvir grafika, xullas, barcha san'at turlari haqida 2015 ta rangli slaydlar suhbat davomida namoyish etildi.

Bundan tashqari, Opera teatri oldidagi asfaltda, ochiq osmon ostida «Bolalar asfaltga chizadilar» deb nomlangan konkurs o'tkazildi. Bu konkurs xalq bayramiga aylanib ketadi. Ana shu konkurs tufayli muzey xodimlari yangi-yangi iste'dod egalarini kashf etishadi, ularni muzey qoshidagi to'garaklarga, rassom ustaxonalariga taklif etishdi<sup>14</sup>.

Yangi muzey binolari qurilishi, kommunistik g'oyalariga mos keladigan ekspozitsion yechimlar, ba'zan original ko'rgazma loyihalari keng ko'lamlı restavratsiya, me'morchilik yodgorliklarining muzeyga aylantirilishi natijasida muzeylar o'zgacha tus oldi. Muzey faqat ma'rifiy ta'sir vositasi emas, dam olish joyi, bo'sh vaqtni unumli o'tkazish maskani, sovet xalqi va chet el turizmining ommaviy maskaniga aylantirilishi lozim edi. Shunda madaniy-ma'rifiy faoliyatning bunday keng ko'lami jarayonni anglab, maxsus ijodiy tahlil etishni taqozo etar edi. Muzeyshunoslikda 1980 yillarning boshlaridan «muzey pedagogikasi» atamasi paydo bo'ldi. Muzeyshunoslar keluvchilarga «Muzey madaniyatini» oshirish, ya'ni maxsus muzey tilini qabul qila olishi, predmetli axborot, asl nusxaning qiymatini tushunish va boshqa ko'nikmalarni yuksaltirish dasturini ishlab chiqdilar. Sobiq Ittifoq hamda O'zbekistonda muzey ishining holati, ko'p sonli ilmiy munozaralar hamda yirik kompleks tadqiqotlar, ularning natijalari muzey nashrlarida e'lon qilinishi asosida bo'ldi. Muzeylar tarixidagi 50 yildan ortiq davom etgan son va sifat jihatidan rivojlanish davri yakunlandi. Muzeylar mamlakat tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, muzey ishi o'zining ichki mantiqiy taraqqiyotiga ega edi. Muzeylar soni va turi o'sib bordi, ularning o'rni va ahamiyati targ'ibot va tashviqot markazi sifatida mamlakatning ijtimoiy hayoti, madaniyatidagi roli esa kundan-kunga sezila borganı kuzatiladi. Respublika maorif tizimini takomillashtirish, jamiyat hayotida muzeylarning rolini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, muzey muhitida va maorif muassasasi pedagogik muammolarni hal etadigan kun tartibidagi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu vaziyat nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning aksariyat mamlakatlarida mavjud. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi zamon madaniyati va jamiyati hayotida muzeylar rolining oshib borishi bilan bir qatorda, unda ishlayotgan xodimlarni o'qitish, malakasini oshirish ancha orqada qolmoqda.

---

<sup>14</sup>«Музей ва болалар», Совет Ўзбекистони санъати, No 1 (492), 1983 йил, 14 б.